



Farg'ona viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6 902 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 139 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 6 763 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-may oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 13 757,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 108,7 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 797,5 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 129,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 10 788,2 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 172,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 112,4 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)





Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 111 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 29 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4082 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-may oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 9 924,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 9 445,6 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,4 % ga to'g'ri keldi viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,2 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)





Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Oltiariq t (11 m.), Marg'ilon (5,5 m.), Bag'dod (5,4 m.) va Rishton (2,3 m) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 889 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 885 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-may oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 7 912,6 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 93,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim bosh mutaxassisi: N.Mahmudova Tel: +998732419768	Ijrochi: N.Mahmudova Tel: +998732419768	Manzil: Farg'ona sh., Oq'yol ko'chasi, 104-a
---	--	---	--